



BIZ ESHITGAN ILK QO'SHIQ

Mirzayeva Shahribonu Komiljon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Farg'ona mintaqaviy filiali magistranti

E-mail: shaxribonumirzayeva323@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlaridan biri bo'lgan "Alla" haqida so'z boradi. Qaysi din, qaysi til, qaysi yurtda yashamaylik har bir ona bolasiga alla aytib ulg'aytirishi qadim davrlardan buyon mavjuddir va bu urf-odat haligacha davom etib, an'anaga aylanib qoldi.*

Kalit so'zlar: *Alla, folklor, musiqa, ertak, an'ana, beshik, afsona, rivoyat, ovoz.*

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o'zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir. Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi, ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovutmacholqlar to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining ilk qadami alladan boshlanadi.

Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlaridan biri "Alla"dir. Alla bolalar beshikdaligida, hali tishi chiqmasidanoq aytiladi. Boshqacha aytganda, beshik qo'shig'i bolaga ona suti bilan kiradi. Allalar poetik jihatdan ham, onalarning ichki tuyg'ulari bayoni sifatida ham xalq ijodining bo'lak turlaridan ajralib turadi. Ular bolaning onasi yoki tarbiyachisi aytadi (ona, enaga, keksa onalar, ba'zan otalar tomonidan ham aytiladi). Allalar bolani ovutish, uxlatish uchun mayin ohangda ijro qilinadi. Onaning yurakdan aytgan quyidagi allasida bola obrazi qisqa, ammo chuqur mazmunli so'zlar yordamida ifodalanadi:

Alla bolam, alla.

Jonim bolam, alla,

Ikki ko'zim alla,

Shirin so'zim alla.

Alla bolam, baxti bor.

Har narsaning vaqti bor,

Jonim bolam, alla,

Shirin bolam, alla,

Ikki ko'zim alla.



Alla eshitib ulg‘aygan, yaxshi tarbiya ko‘rgan bola jamoat o‘rtasida, to‘y-tomoshalarda ota-onaning obro‘yi, uning shuhrati sifatida ta‘riflanadi. Shuningdek, bolaning to‘g‘ri tarbiyalanishida ota-onaning roli katta ekanligi ko‘rsatiladi. Bola yoqimli qo‘shiqlar ohangini osongina o‘rganib oladi. Alla - bolaga zavq bag‘ishlaydi, ma‘naviy-tarbiyaviy ozuqa beradi.

Yot, bolam, uxla, qo‘zim,

Uylarda o‘chdi chiroq.

Uxlar asalarilar,

Uxlar baliqlar tinchroq.

Ko‘kda oy yarqiraydi,

Derazadan qaraydi.

Ko‘zlaring yumgin qo‘zim,

Yot, quvonchim, qunduzim, Alla, alla.

“Alla” so‘zi arab lug‘atida “ovutish, tinchlantirish” ma‘nosini bildiradi. Bu esa yig‘lab, xafa bo‘layotgan chaqaloqni ovutish uchun aytilgan, onaning qalbidan chiqayotgan eng ezgu niyatlarning kuyga solingan shakliga berilgan eng munosib nomdir. Bolaga alla aytish qadim zamonlardanoq onalarning odatiga aylangan, onalikning asl belgisi va ziynati xisoblanadi. Insonning miya tuzilishiga ko‘ra unga kuy, mayin ovoz qattiq ta‘sir qilib, uhlashi, dam olishiga yordam qilar ekan.

Buni juda yaxshi anglagan ziyrak ayollar o‘z kuylari orqali bolaga Buyuk Allohning nomini singdirib, ruhiy tarbiyalaydilar. Ya‘ni allaning asl shakli “Alloh” zikridir, buni har safar uyqudan oldin eshitgan go‘dak o‘z Robbini taniydi.

Ayrim taxminlarga ko‘ra, alla nomi «Alloh» so‘zidan kelib chiqib, Yaratgandan chaqaloqni o‘z panohida asrashni iltijo qilish bilan bog‘liq. Yaratganga qilingan iltijoli nidolardan so‘ng dunyoni titratadigan eng go‘zal va eng toza mohiyat shu qo‘shiqda jam bo‘ladi.

Jon bilan birga, qon bilan birga inson botiniga singadigan bu dilbar xonish milliy qadriyatlarimizning bebaho namunasi hisoblanib, u go‘dak xotirasida umrbod muhrlanib qoladi. Farzand uchun o‘z onasidan mehribonroq zot yo‘q va onasining allasidan, uning ohangidan yoqimliroq kuy ham yo‘q. Yosh onalar, balog‘atga yetgan qizlarning ba‘zilari alla aytishni bilmasligi ham bor gap: bola tun davomida tinim bilmay yig‘laganda, ba‘zi yosh onalar bolani yupatishga urinib, xonaning u burchagidan bu burchagiga zir qatnashiga guvohi bo‘lamiz. Shunday paytlarda bola qulog‘iga onaning yoqimli ovozi, mehrga qorishiq allasi kerak...



“Ona allasi - tarbiya maktabidir” desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bola ruhiyatiga, ko‘ngliga iymonni, qanday niyatlarni solsak, ularning kamoloti shunga qarab bo‘y ko‘rsatadi. Bu borada alla beqiyos ahamiyatga ega. Umid yulduzi bo‘lgan farzandlarni suyib erkalash, butun borliq, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni go‘dak qalbiga singdirish uchun aytiladigan qo‘shiq – allaning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi quyidagi jihatlarida o‘z aksini topadi:

Alla – ona mehrining samimiy ifodasi bo‘lib, ushbu sehrli ohang go‘dak qalb-qo‘rida, ong-u shuurida ezgu hislar kurtak yozishiga sababchi bo‘ladi;

Halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik singari fazilatlar ham bola vujudiga, avvalo, ona suti, ona allasi bilan birga singadi; Go‘dakning o‘z vaqtida orom olishi – salomatlik uchun muhim. Ana shu hayotiy zaruratlar sirasiga xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish, bolani uxlatish uchun aytiladigan alla qo‘shiqlari kiradi. Ezgu hislarga yo‘g‘rilgan yoqimli kuy bola ruhiga orom bag‘ishlaydi; Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida chaqaloq organizmi va xarakterini mustahkamlash uchun, avvalo, uni yengilgina chayqatish, silash, so‘ng, unga musiqa eshittirish, alla aytish lozimligi ta‘kidlangan. Bolada shu orqali jismoniy harakat, fikrlash va ijodiy intilishga moyillik paydo bo‘ladi;

Ma‘naviy yorug‘likdan bahramand bo‘lishning, milliy ruhda tarbiyalashning bosh bo‘g‘ini – ona allasi bilan bog‘liq. “Ona allasi faqat chaqaloqning orom olishi uchun aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko‘ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg‘ular va orzular go‘dakning jismu jonida ildiz otadi”. Alla nafaqat bolaning orom olishiga, balki uning murg‘ak qalbida mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qiladi. Alla eshitgan inson yurak-yuragidan mehr tuyadi. Qaysi millat vakili bo‘lishidan qat‘i nazar, alla barchaning yuragiga yetib boradigan ilohiy qudratga ega; Allada onaning farzandi kelajagiga ishonchi, orzu-umidga, shirin o‘ylarga yo‘g‘rilgan ezgu tilaklari, mehr-muhabbati mujassam. Chunki bola hayotidagi muvaffaqiyat onaning unga bo‘lgan emotsional munosabatiga bog‘liq. Alla faqat ezgu tilaklar, yaxshi niyatlar, farzand ruhiga maqtoov va erkalashlar, fidoyilik va ardoq tushunchalaridan iborat ekanligi uchun ham bolani har tomonlama sog‘lom inson bo‘lib kamolga yetishiga xizmat qiladi. Biz qaysi yurtda yashamaylik, qaysi millat, qaysi tilda so‘zlashmaylik har bir ona o‘z farzandiga “Alla” aytib ulg‘aytiradi.

Olimlarimiz tomonidan “Musiqa – inson tanasidagi barcha hujayralarni harakatga keltiruvchi, ruhiyatiga ijobiy ta‘sir etuvchi kuchli vosita – deya e‘tirof etilgan. Jumladan, ona allasi ham go‘dak tanasining yaxshi rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ona allasi bilan tarbiyalangan bolaning aqliy



imkoniyatlari yuksak bo'ladi; Sokin va yoqimli musiqa eshitib ulg'aygan bolalarning go'zallikka, san'atga ixlosi, ishtiyoqi baland bo'ladi;

Ayrim yosh onalar mobil qurilmaga yozib olingan "mahsus alla" ovozini yangratib qo'yib chaqaloqlarini uhlatishar ekan. XXI asr texnologiyalar asri, biz hayotimizni ularsiz xech ham tasavvur qila olmaymiz. Biroq ushbu vositalarning afzallik tomoni bo'lganidek, salbiy ta'siri ham mavjud. Bizning fikrimizcha onalar farzandlariga o'z ovozi bilan alla aytib uhlatishi lozimdir. Bola o'z onasining hidini his qilgani kabi ona ovozini ham ajrata oladi, ovoz ohangini his qiladi, sezadi va tinchlanib, orom oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. "Bolalar o'yin qo'shiqlari" *O'zME*. B-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://savollar.muslimaat.uz/maqola/486>
4. <https://savollar.qalampir.uz/news/onalar-o'qisin>
5. Murat Tosun/Olim yetishtirgan onalar/Toshkent; "FAKTOR PRESS", 2021

